

DINNING SIYOSIY VA IJTIMOIIY HAYOTGA TA'SIRI VA ROLI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Annotatsiya Mazkur maqolada dinning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni, uning jamiyat hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada diniy e'tiqodlar va qadriyatlar jamiyatning siyosiy va ijtimoiy tuzilmalarini qanday shakllantirishi, madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy birdamlikni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni yoritiladi. Dinning tarixiy va zamonaviy jamiyatlarda siyosiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni keng yoritib o'tilgan. Dinning jamiyatdagi turli guruhlarni birlashtiruvchi yoki ajratib turuvchi omil sifatidagi, shuningdek, davlat boshqaruvida diniy qadriyatlarning ahamiyati va ularning ijtimoiy normalarga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Din, T.Parsons, diniy bag'rikenglik, diniy e'tiqodlar, funksionalizm, dunyoqarash, diniy dunyoqarash.

Din insoniyat tarixidagi eng qadimgi va eng kuchli ijtimoiy institutlardan biri sifatida, jamiyat va davlat hayotida chuqur iz qoldirgan. Diniy e'tiqodlar nafaqat shaxsiy hayotga, balki ijtimoiy munosabatlar va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ham katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Dinning ijtimoiy hayotdagi roli uning odamlar o'rtasida o'zaro birdamlikni, bag'rikenglikni va axloqiy tamoyillarni shakllantirishdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, tarix davomida ko'plab jamiyatlarda din siyosiy hokimiyat bilan o'zaro chambarchas bog'lanib, hukmron qadriyatlarni va qonuniy tizimni belgilashda asosiy rol o'ynagan. D.A. Raximjanov va O.K.Ernazarovlarning keltirilishicha, sotsiologik jihatdan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Din sotsiologiyasida uning jamiyatda bajargan

vazifalariga ko'ra o'rganiladi. Dinning vazifalari deganda uning alohida shaxsga va jamiyatga ta'sir qilish yo'li va tabiati nazarda tutiladi. Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'limotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi. Funksionalizm jamiyatdagi barcha narsaga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi; unga ko'ra, jamiyatdagi har bir element muayyan funktsiyani bajaradi.[1] A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanovning "Dinlar falsafasi" kitobida, dinning mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni ilohiyot va fanda turlicha talqin etiladi. Ilohiyotshunoslar fikricha – din xudo tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy qilinishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning xudo bilan aloqa qilish ehtiyojidir. Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqat» va «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan qarash ta'limotdir. [2] Z.M. Islomov, N.A. Muhamedov, F.A. Sindarovalarning fikriga ko'ra, dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi aytib o'tilgan:

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – kompensatorlik vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik. Inson o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo'lib ko'ringanida, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat seziladi. Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik – integratorlik vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotni qamrab olishga intiladi. Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib, nazorat qiluvchilik – regulyatorlik vazifasini bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarini, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi. To'rtinchidan, din

aloqa bog'lashlik kommunikativlik vazifasini ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligi, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga intiladi. Beshinchidan, dinning integratorlik vazifasi bilan legitimlovchilik qonunlashtiruvchilik vazifasi chambarchas bog'liq. Dinning bu funksiyasi nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T. Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, «har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni ham belgilaydi». Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlarini ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, dorulfano va dorulbaqo kabi dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turishidan iboratdir.[3] A.V.Narbekovning "Dinshunoslik asoslari" kitobida, hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylanganligini, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini saqlab qolganligini aytib o'tgan. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Dunyoning qator davlatlarida din o'zining siyosiy mavqeiini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda. Mustqillikdan keyin dinning ijtimoiy-siyosiy salmog'i o'zgargan bo'lsa-da, u bilan bog'liq muayyan muamolar kelib chiqmoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasida Konsitutsiyasida dinning mamlakatimizdagi ijtimoiy o'rnini aniq belgilab qo'yilgan.

[4] Q.O.Mahkamovning fikriga ko'ra, diniy bag'rikenglik-tinchlik va barqarorlik garovi hisoblanadi. Bu turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil va inoq yashab kelayotgan bizning vatanimiz O'zbekistonda hukm surmoqda. Biz buni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Har bir xalqning dinlarga bo'lgan hurmati ularning hamjihatlikda yashashini mustahkamlamoqda. Diniy dunyoqarash dastlabki dinlarning vujudga kelishiga turtki bo'lgan. dunyoqarashning tarixiy turlaridan biri bo'lib, uning asosiy belgisi ilohiy, g'ayritabiyy kuchlarga ishonish va ularga sig'inish, butun olam, barcha mavjudot, insoniyat dunyosini xudo yaratganini va boshqarishini e'tirof etish, xxudoga, ruhlarga e'tiqoddan iboratdir. Diniy dunyoqarash quldorlik tuzumidan boshlab rivojlantirib borilgan. Dastlabki dinlar ijtidoiy jamiyat davrida yuzaga kelgan va turli tip, shakllarda rivojlangan,

turli hodisalar negizida g'ayritabiiy kuchlar yashiringan deb o'ylashlari natijasida yuzaga kelgan. Chunki bu davrda inson tabiatni, atrofdagi olamni anglashga o'ringan. [5] Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ham ta'kidlash zarur. Bu fuqarolik jamiyatida din o'z mavqeiga ega bo'lishini anglatadi. Bu ham Konstitutsiyamizning amaldagi ijrosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalardan biridir. Aytish joizki, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, bunyodkor milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va xalqimizning haqiqiy ma'naviy surati va siyratini belgilovchi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharm-u hayo kabi eng oliy insoniy tuyg'ularning tub mohiyatini anglash va ko'z qorachig'idek e'zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarning roli va o'rni beqiyosligini bugun hech kim inkor etmaydi. Aksincha, bunday bunyodkor faoliyat qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning sababi esa, Konstitutsiyamizda ana shunday faoliyat uchun mustahkam huquqiy zamin yaratib berilganidadir.[6] Dinning siyosiy va ijtimoiy hayotga ta'siri va roli haqida xulosa qilib aytganda, din jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalarda chuqur ta'sir ko'rsatadi. Din, bir tomondan, axloqiy qadriyatlarni shakllantirib, jamiyatda birlashuv va hamjihatlikni ta'minlaydi, boshqa tomondan esa, siyosiy qarorlar va ijtimoiy siyosatga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Diniy qadriyatlar insonlarning kundalik xulq-atvorini, oila va jamoa hayotini belgilashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida yoki siyosiy jarayonlarda dinning roli kuchli bo'lgan jamiyatlarda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar nozik masalalardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, din ijtimoiy hayotni tartibga solishda, madaniyatni saqlash va rivojlantirishda hamda siyosiy qarashlarni shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.A. Raximdjano'v va O.K. Ernazarov "Dinshunoslikka kirish" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent 2018
2. A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanov "Dinlar falsafasi" Toshkent

Innovatsiya-Ziyo, 2020 3. Z.M. Islomov, N.A. Muhamedov, F.A. Sindarova
“Dinshunoslik”, Toshkent Niso Poligraf 2016

4. A.V.Narbekov “Dinshunoslik asoslari”, Toshkent 2008

5. Q.O.Mahkamovning “Dinshunoslik” Namangan 2020

6. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O
‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK
MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI
//Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.

7. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In
The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative
Results. – 2022. – C. 984-989.

8. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the
globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. –
2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.

9. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education
and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental
Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10. Ayonovna
A. S., Xudoyberdi o’g’li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘
//TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.

11. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL
GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION
BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity
Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

12. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF
ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL
CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF
ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current
Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

13. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O

‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.

14. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.

15. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.

16. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

17. Ayonovna A. S. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO ‘LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.

18.. <https://iiau.uz/oz/news/2044>.